

JUMANAZAR BAZARBAEVNING O'RTA VA OLIY TA'LIM  
MUASSASALARIDA O'QUV-TARBIYA JARAYONINI  
TAKOMILLASHTIRISH VA ILMIY-PEDAGOGIK KADRLAR  
TAYYORLASHDAGI O'RNI

Joldasbaev Paraxat Muratbaevich  
*Ajiniyoz nomidagi NDPI katta óqituvchisi*

**Kalit sózlar:** Oliy talim, pedagogika instituti, pedagogika, talim, ilmiy tadqiqot, tashkilotchilik va jamoatlik.

Respublikamizdagi zamonaviy ta'lismi har tomonlama jahon ta'lism standartlari va dasturlariga mos tarzda shaxsning individual sifatlarini rivojlantirishga, shuning bilan birga, milliy xalq pedagogikasidagi hamda falsafasidagi komil insonni tarbiyalashga yo'naltirilgan. Bu borada davlat organlari tomonidan nizom va qarorlar, prezident farmonlari, usluviy qo'llanmalar ishlab chiqildi, qator tadqiqotlar va loyihibar olib borildi.

Jumanazar Bazarbaev teran fikrli, ko'p qirrali olim bo'lishi bilan birga zamona bilan hamqadam bo'lib, o'zining intellektual salohiyatini o'z respublikada pedagogik bilimlarning ravnaq topishi, ta'lism-tarbiya jarayonining takomillashishi va yuksak kasbiy mahoratga ega pedagogik kadrlarni tayyorlash ishiga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimi hamda pedagogika fanini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan taniqli shaxslardan biri. Dastlabki ish faoliyatini Nukus davlat pedagogika institutida falsafa fani o'kituvchisi lavozimida ish boshlagan J.Bazarbaev dars jarayoniga javobgarchilik bilan qaraydigan, ma'ruza va seminar darslarga puxta tayyorgarlik ko'radigan edi. «Ma'ruza darslarining talabalarga tushunarli, ularni o'ziga jalb qiladigan, teran mazmunli va sifatli bo'lishiga alohida e'tibor qaratdi. Buning uchun u bor kuch-jigarini ayamadi. Har bir darsning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining so'zsiz bajarilishiga alohida e'tibor qaratdi. Shu tariqa, ma'ruzada auditoriyani o'ziga jalb qiladigan, talabalarni sehrlab qo'yganday tinglaydigan darajaga erishdi. Uning ma'ruza darslari yakunida savol-javoblar g'oyat ko'p bo'lardi va talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblardan qoniqish hosil qilardi»[1:17].


J.Bazarbaevning kadrlar tayyorlash va ta'lismi takomillashtirishga oid faoliyatini tadqiqi qilar ekanmiz, uning bu yo'naliishlardagi faoliyatini qo'yidagicha tasniflash mumkin:

1. Tashkilotchilik va jamoatlik ishlari.
2. Amaliy ishlari: dasturlar, nizomlar tuzishdagi ishtiroki.
3. Ilmiy tadqiqotlari, o'quv qo'llanmalari.

Mazmuniga ko‘ra olimning bu boradagi ishlarini 1) o‘rta ta’lim; 2) o‘rta maxsus ta’lim; 3) oliy ta’lim; 4) oliy ta’limdan keyingi ta’lim rivoji uchun qilingan ishlari sifatida tasniflashga bo‘ladi (1.2.1-rasm):

### 1.2.1-rasm

**Jumanazar Bazarbaevning ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha faoliyati yo‘nalishlari**



Olim respublikadagi uzluksiz ta’lim tizimining maktabgacha ta’limdan tashqari barcha bo‘g‘inlarida o‘zining o‘nagali ishlari bilan o‘rnak bo‘ldi.

J.Bazarbaevning Qoraqalpog‘iston respublikasi umumta’lim maktablaridagi, kasb-texnika o‘quv yurtlaridagi ta’lim samaradorligini takomillashtirishga qaratilgan ishlari, tashabbuskorligi va tashkilotchiligi 1989-1990 yillari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri lavozimida ishlashi bilan bog‘liq. U o‘zining «Boqimandalik - bizning eng katta kamchiligidiz» nomli maqolasida «1989-1990 yillari biz Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi texnika ijodiy klubida va Beruniy shahridagi kasb-texnika o‘quv yurtida respublikamiz o‘rta maktablari uchun bo‘r ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydik. Sobiq ittifoqning umri tugayotgan bir vaqtida bo‘r g‘oyat kamyob narsa bo‘lib, uni xorijdan va Belorussiyadan olib kelish qiyinlashgan edi. Biz uni

o‘zimizda ishlab chiqarishga kirishdik va uni muvaffaqiyatli bajaruvchi jonkuyarlar ham topildi. Shunday qilib, bo‘rning sifati va tuzilishi bo‘yicha xuddi o‘sha namunalardan qolishmaydigan etib ishlab chiqarib, 1990 yili Nukus shahar Xalq ta’limi bo‘limiga ikki tonna bo‘r berildi. So‘ng ularning ishlari nimagadir yurishmadni. Bunday ishlarni kichik bo‘lsa ham «Oz-oz o‘rganib dono bo‘lar» degan yaxshi niyat bilan olg‘a rivojlantirish juda uzoqni ko‘zlash bo‘lardi»[2:201], deb aynan o‘z vaqtida zarurli paytda maktablarni dars qurollari bilan ta’minlashga amaliy chora ko‘rishga muvoffaq bo‘ladi.

Dotsent A.Pazilovning ta’kidlashisha, «J.Bazarbaev ish stolining ustida hamisha Nukus shahar xalq ta’limi bo‘limiga qarashli mакtab direktorlari o‘qitadigan darslarning darslar ro‘yxati turardi. U yoniga mutaxassislarni olib, ogohlantirishsiz borib mакtab direktorlarining darslariga kirib, ularning o‘qitish mahoratlarini tekshirib turdi. Bunday katta talabga oyoq qo‘sha olmaydigan ba’zi bir mакtab direktorlari «Vazir ishidami?» yoki «Vazir qaysi maktablarga qarab ketdi?» deb ishidagilardan qo‘ng‘iroq qilib so‘rab turadigan odat chiqardi. Bu tajriba tuman xalq maorif bo‘limining rahbarlariga ham katta javobgarlik yukladi. O‘zlari ham o‘z qaramog‘idagi o‘qituvchi va mакtab direktorlarining darslariga kutilmaganda kiradigan bo‘ldi» [1], deb J.Bazarbaevning vazir vaqtidagi bloknoti bilan tanishganida unda o‘ttizdan ortiq o‘qituvchilar va mакtab direktorlarining darslariga kirganligi, zarur maslahatlar berganligi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishganligini ko‘rsatib o‘tadi.

U xalq ta’limi vaziri bo‘lib ishlagan davrda kasb-texnika texnikumlari rahbarlariga o‘quvchilarga kasb o‘rgatish usullarini ko‘paytirish va foydali ishlarga yo‘naltirish, ishlanmay tashlab qo‘yilgan qo‘y-echkilarning terisidan dublyonka ishlashni qo‘lga olish taklifi bilan chiqadi. J.Bazarbaevning tashabbusi bilan yo‘lga ko‘yilgan dublyonka ishlab chiqarish Taxiatashdagi 4-sonli kasb-texnika o‘quv yurtida amalga oshirildi. U yerda teriga ishlov berish va olingan mahsulotdan to‘n tikuv ishlari qo‘lga olinib, teridan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarila boshladi.

J.Bazarbaevning bu tashabbusi o‘rta-maxsus ta’lim tizimini takomillashtirishga oid aniq belgilangan choralarining biri bo‘lib, u ta’lim jarayonida bir nechta foydali natijalarga yo‘l ochadi.

Birinchidan, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda faqat nazariy bilimlar berish bilan cheklanmasdan, olingan bilimlar asosida o‘quvchilarni kasb sirlarini o‘rganishga, kasbga qiziqishini orttirishga, ishlab chiqarish jarayoniga ishtiroy qilishga yo‘naltirish masalasi ko‘tarilgan.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali kasb-texnika bilim yurtlarining moddiy bazasini takomillashtirishga ham imkoniyat foyda bo‘ladi.

Uchinchidan, o‘rta maxsus ta’limning samaradorligi ortadi, ya’ni nazariya, amaliyat va ishlab chiqarish uzviyligi ta’minlanadi. Natijada, bilim berish, bilim olish va sanoatning bitta o‘quv maskanidagi faoliyati ko‘pgina muammolarning yechim topishiga, ayniqsa o‘qish faoliyati samaradorligiga olib keladi.

J. Bazarbaev Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri lavozimida ishlagan vaqtidagi umumiyligi o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-ho‘nar ta’limi tizimini takomillashtirish bo‘yicha olib borgan ishlarini tahlil qilish orqali uning bir qancha samarali ishlarni amalga oshirganini aniqladik:

- respublika yoshlarini o‘qitishning sifatini ko‘tarishga diqqat qaratdi;
- o‘quvchilarining umumiyligi va kasbiy bilimni teran egallash choralarini ishlab chiqdi;
- maktablarni, kasb-texnika o‘quv yurtlarini, bolalar uylarini moddiy-texnik baza bilan ta’minalashga kuch soldi;
- kadrlarni o‘z mutaxassisligi va ishga layoqatligiga qarab ishga joylashga e’tibor qaratdi;
- Xalq ta’limi vazirligi qoshida Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Xamidulla Jumashev rahbar bo‘lgan respublika o‘quv-metodik markazni tashkillashtirdi;
- Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi respublika o‘quv-metodik markazning qoraqalpoq tilida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, metodik qo‘llanmalar tayyorlash va chop etish ishlari bilan shug‘ullanishini nazarda tutib, uning shtat tarkibini 40 odamga yetkazdi.

J.Bazarbaev O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov rahbarligidagi delegatsiya tarkibida Pokiston, Buyuk Britaniya davlatlarida safarda bo‘lib, Buyuk Britaniyaning va Poistonning ta’lim sohasi bilan tanishib, O‘zbekiston ta’lim tizimini dunyo standartiga moslashtirishga, mazkur davlatlarga talabalarni o‘qishga yuborish, o‘qituvchilar almashish, o‘quv qurollari va dasturlari bilan almashish, ingliz tilini o‘rganishni kuchaytirish kabi masalalarning muvafaqqiyatli yechim topishida faollik ko‘rsatdi.

J.Bazarbaev O‘zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limida faoliyat yuritayotgan paytda ham (1963-1980 yillar) kadrlar tayyorlash masalasiga befarq qaramadi. Chunki, uning tashabbusi bilan ilmiy-tadqiqot institutida oldin mavjud bo‘lmagan falsafa sektori ochilib, unda qoraqalpoq mumtoz adabiyoti vakillarining dunyoqarashi, falsafa va xalq turmushini ijtimoiy o‘rganish, yoshlarni kasbga yo‘naltirish kabi masalalar tadqiq

qilish ishlari yo'lga qo'yila boshladi. Bu ishning ahamiyatini yuqori baholagan J.Sagindiqov J.Bazarbaev haqida ko'yidagicha fikr bildiradi: «...faqatgina falsafa ilmi tadqiqotchisigina emas, uning tashkilotchisi ham bo'ldi. Qoraqalpog'istonda ilk bor falsafa sektorini tashkillashtirdi, unga yoshlarni jalb qilib, falsafaning aniq sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishga rahbarlik etdi»[3:11-14]. O'z vaqtida mazkur sektor Moskvadagi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi va O'zbekistondagi falsafa va huquq instituti va bilan yaqin ilmiy aloqada o'z ishlarini olib borib, sektor xodimlaridan S.Abaev, O.Arzuov, S.Sodiqov, G.Yangibaeva, B.Utambetov, T.Davletbaevlar fan nomzodlari bo'lib xalqimizning intellektual salohiyatini boyitdi.

J.Bazarbaev O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limidagi tarix, etnografiya bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan kengashning a'zosi sifatida O'zbekiston miqyosida 4ta doktorlik, 16 nomzodlik dissertatsiyalarga rasmiy opponent bo'ldi. Shunday qilib yurtimizda yuqori kvalifikatsiyali mutaxassislarni taylorlashga hissa qo'shdi.

1990 yil 13 iyulda sobiq ittifoq Vazirlar Kengashining №674-sonli qarori, Sobiq Xalq ta'limi bo'yicha davlat qo'mitasining №528-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining №297-sonli qarorlari asosida Nukus shahrida Nukus davlat pedagogika instituti ochildi.

- 1990 yili Pedagogika instituti o'qituvchilariga bog'-rog'lari uchun sheriklik tashkil etdi va yer olgan o'qituvchilar yer mulkiga ega bo'ldi;

- davr talabiga mos yangi mutaxassislar yetkazib berish ishiga alohida diqqat qaratdi, bu borada o'z sohasining malakali xodimlari bo'lgan Q.Qosarnazarov, J.Qayrbaev, Q.Priyazov, A.Paxratdinov, A.Aburov, O.Dospanov, Yu.Ibragimov, R.Tilavov, B.Shamambetov, M.Mambetullaev, B.Allamuratov, J.Narimbetov, M.Bo'ronov, K.Qurambaev, A.Aburov, B.Sultamuratov, A.Najimov, A.Utambetov va boshqa olimlarni, metodistlarni institutga ishga oldi;

- malakali o'qituvchilarning ish tajribalaridan talabalar amaliyoti davomida unumli foydalanib bordi;

- dastlab 9 yo'nalish bo'yicha talabalarga ta'lim berilgan bo'lsa, 1991-1992 o'quv yilidan boshlab 14 yo'nalish ochildi. Ular qatorida ushbu vaqtga qadar qoraqalpoq tilida tahsil olgan oliy ma'lumotli mutaxassislarga ega bo'limgan respublika maktablari uchun musiqa, tasviriy san'at va chizmachilik kabi mutaxassisliklarning ochilishi katta yutuq bo'ldi;

- «Orol bo'y» ishlab-chiqarish kichik korxonasi va «Talaba» nomli ishlab-chiqarish birlashma tashkillashtirildi;

- institutning muhandis-pedagogika fakulteti qoshida bo‘r ishlab chiqarish korxonasi yo‘lga qo‘yildi;

- 1992 yildan boshlab Respublikamizdagi eng ko‘p tirajli jamoatchilik asosidagi bosh muharriri J.Bazarbaev bo‘lgan, asosiy maqsadi - respublika ma’naviy-ma’rifiy sohasida, ya’ni mакtab, kasb-texnika uchilishelari, bolalar bog‘chalar va Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida faoliyat yurituvchilarning, shu jumladan, ta’lim sohalaridagi rahbar xodimlarning va o‘quvchi yoshlarning, ta’lim-tarbiya masalalari bilan qiziqadigan har bir kishining ilmiy-ma’naviy ehtiyojini qondirishga xizmat etishdan iborat «Qaraqalpaqstan mug‘allimi» nomli ilmiy-metodik, publitsistik jurnal nashr qilina boshladi;

- institut tarixini aks ettiruvchi muzey tashkil etilli;

- institutga XIX qoraqalpoq mumtoz shoiri Ajiniyoz Qo‘sibay o‘g‘lining ismi rasman berilishiga erishdi;

- institutda Ajiniyazning musiqiy merosini o‘rganish, tashviq qilish va unga talabalarni jalb qilish maqsadida, uning adabiy taxallusi bilan ataladigan «Ziyuar» ansambli tashkil etildi;

- 1990 yil Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogik institutini so‘nggi 10 yil ichida respublikamizdagi oldingi yuqori o‘quv yurtlari safiga qo‘shishga erishdi;

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- Пазылов А. Даналыққа елтиўши пидайы алым. – Нөкис: Билим, 2013. – Б. 17.
- Базарбаев Ж. Баққымандалық бизиң ең үлкен кемшилигимиз // Өмир – бул сананың көтериңкилиги. – Нөкис: Билим, 1996. – Б. 201.
- Сагындыков Ж. Философия илиминиң биринши докторы. / Үлгили устаз, пидайы алым. – Нөкис: НМПИ, 2003. – Б. 11-14.